

YOSHLARNI TADBIRKORLIK SOHASIDA QIZIQISHINI OSHIRISH

Rajabov Alisher Po'latovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta`lim fakulteti tyutori

Annotatsiya: Yoshlarga tadbirkorlikni rivijlantirish jarayonida oila, mahalla, ta`lim muassasalari, madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlar olib borish.

Kalit so'zlar: Oila, mahalla, ta`lim muassasalari, bilim, tadbirkorlik, odob-axloq.

Annotation: Conducting work in cooperation with family, neighborhood, educational institutions, cultural organizations in the process of developing entrepreneurship for young people.

Key words: Family, neighborhood, educational institutions, knowledge, entrepreneurship, manners.

Аннотация: Проведение работы в сотрудничестве с семьей, соседями, учебными заведениями, культурными организациями в процессе развития предпринимательства среди молодежи.

Ключевые слова: Семья, соседство, учебные заведения, знания, предпринимательство, манеры.

Kirish:

Azaldan yurtimiz o'zining bolajonligi, yoshlarning kamoloti barcha davrlarda ustuvor bo'lib kelgani bilan ajralib turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilmoqda. Yurtimizda esa bu ko'rsatkich e'tirof etsa arzigulik – aholining 60 foizdan oshiq qatlami kelajagimiz davomchilari hissasiga to'g'ri keladi. Shu ma'noda ham, O'zbekistonni yoshlar mamlakati, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinalini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlanish, uning qonuniy-me'yoriy asolarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi.

Asosiy qism:

Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo'lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o'z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g'oyat qadrlagan: "Tajribamda ko'rilmanki, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi."

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g'oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhitoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqlari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdag'i ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va huquqiy asosi shakllangan bo'lib, u muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu soha uchun soliq va moliyaviy munosabatlarda katta imtiyozlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyati tubdan takomillashtirilishini nazarda tutadi. Farmonda Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik, tadbirkorlik sub'yektlarini o'qitish va kadrlar tayyorlash, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish kabi aniq va eng muhim vazifalari belgilab berilgan.

Xalq farovonligini oshirish maqsadida "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Obod qishloq", "Obod mahalla", tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi. Bu dasturlar aholi bandligini ta'minlash, oilalar uchun daromad manbai yaratishga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlikning rivojlanishi ko'p omillarga, birinchi navbatda tadbirkorning bilimi, tajribasi va ishbilarmonligiga bog'liq. Bugungi kunning tadbirkori menejment, rahbarlik usullari asoslari, iqtisodiy masalalar bo'yicha biznesni rejalashtirish, xo'jalik faoliyatini tahlil etish, chiqimlarni kamaytirib, foydani ko'paytirish, shuningdek, huquq va psixologiya sohasi kabi bilimlarni egallashi zarur. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish juda murakkab, texnika vositalari va texnologiyalar muttasil takomillashib bormoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikasiya qilishda, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda, texnik

hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdag'i mahsulotlarni o'zlashtirishda o'ta muhim rol o'ynashidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbayi ekanligidan yaqqol dalolat beradi. O'zbekiston uchun xususiy tadbirkorlikning mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash yoki o'zini o'zi band qilish, uning daromadini oshishidagi ahamiyati, ayniqsa, muhimdir.

Yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ham katta kuch. Respublikamizda 230 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar faoliyat olib bormoqda. Ularning safi yanada kengayishi uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoxda. Endilikda "Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor" tamoyili asosida har 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshlar biriktiriladi. Tijorat banklarining hududlarda faoliyat boshlagan "Loyihalar fabrika"lari yoshlarimizning ilg'or g'oyalari asosida loyihaviy taklif va biznes rejalarini tayyorlab beradi. Yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etish tajribasidan foydalangan holda barcha shahar va tumanlarida "Yoshlar kichik sanoat zonalari" tashkil etiladi. Ushbu sanoat zonalarida yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun zarur bo'ladigan barcha infratuzilma ob'yektlari joylashtiriladi.

Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

1. Aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari amaliyotga joriy etilsin:

2. aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish;

3. aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jalb qilish;

4. tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;

5. aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish;

6. tadbirkorlik ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish va yagona davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilishini va muvofiqlashtirib borilishini yo'lga qo'yish.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mazkur bandda keltirilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlasin.

Yoshlar ishlari agentligi aholiga o'zining turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan «kouching» video materiallar va darsliklar, motivatsion roliklar tayyorlash uchun tanlov asosida ijtimoiy buyurtmalar joylashtirsin.

bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish borasida vakolatli davlat organi etib belgilansin. Bunda

dasturlarida ishtirok etuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari elektron reyestrini shakllantirish hamda ularning o'qitishga sarflangan xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kirmsin. Bunda, shu jumladan, quyidagilar nazarda tutilsin:

kompensatsiya taqdim etishda oshkorlik va haqqoniylilikni ta'minlash, mazkur jarayonda turli xil suiiste'molliklar qilinishining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini yaratish.

nodavlat notijorat tashkilotlariga qarz mablag'larini ajratish uchun tanlov shartlari va baholash mezonlari Tadbirkorlikni rivojlanadirish agentligi tomonidan Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va mustaqil ekspertlar ishtirokida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi hamda o'quv kurslari bilan qamrab olinadigan hudud va aholi soni, mikroqarz foiz stavkasi, o'quv dasturlari sifati kabi asosiy mezonlarga asosan takliflarni baholashni nazarda tutadi.

Xulosa

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbatini singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlari o'sa boshlaydi. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmuni tashkil etilishiga oid pedagogik omillar mavjudki, bularni hisobga olishga majburdirmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2020-yil 13-oktyabr
2. O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent shahri, 2021-yil 21-dekabr, 765-son
3. <https://lex.uz/acts/-5045889>